

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI

(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN

QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSh VA YeVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'uchiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) 12-19

Норов Шухрат

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ

МОЛОДЕЖИ 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI

TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Кайыбеков Парахат

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫМИ ТРАНСПОРТНЫМИ

УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM

O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER

CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feruza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'IY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Таджибаева Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК..... 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ..... 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbonov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH..... 105-107

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: IJTIMOY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST

Absalomova Feruza Sharif qizi

Samarqand Des Education O'quv markazi o'qituvchisi

E-mail: 1feruzchik3@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tilini o'rganishda o'quvchi motivatsiyasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar har tomonlama tahlil qilinadi. Global tendensiyalar, xususan, Janubiy Koreya Respublikasining iqtisodiy va madaniy nufuzi ortib borayotgani fonida koreys tiliga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshgan. Tadqiqot doirasida til o'rganishda integrativ va instrumental motivatsiya modellariga asoslangan yondashuvlar, Vygotskiy, Gardner, Dörnyei, Bandura, Kramsch va Byram kabi olimlarning nazariy qarashlari orqali o'quvchi motivatsiyasining shakllanishi va barqarorligi izohlangan. Shuningdek, madaniy komponentning til o'rgatishdagi o'rni, stereotiplarni yengishning metodik yo'llari, interaktiv hamda psixodidaktik yondashuvlarning samaradorligi asoslab berilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalar va virtual madaniy muhitlar vositasida koreys tilini muvaffaqiyatli va barqaror o'rgatish uchun kompleks yondashuv zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: koreys tili, o'quvchi motivatsiyasi, ijtimoiy-psixologik omillar, madaniy kontekst, interaktiv metodlar, psixodidaktika, integrativ motivatsiya, madaniyatlararo kompetensiya, stereotiplar, texnologik vositalar.

FACTORS AFFECTING STUDENT MOTIVATION IN KOREAN LANGUAGE TEACHING: SOCIO-PSYCHOLOGICAL AND CULTURAL CONTEXT

Absalomova Feruza Sharif kizi

Teacher of the Samarkand Des Education Training Center

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the social, psychological, and cultural factors influencing student motivation in learning the Korean language. In light of global trends, particularly the increasing economic and cultural influence of the Republic of Korea, interest in learning Korean has grown significantly. The study explains the formation and sustainability of learner motivation based on integrative and instrumental motivation models, drawing on the theoretical perspectives of scholars such as Vygotsky, Gardner, Dörnyei, Bandura, Kramsch, and Byram. The article also substantiates the importance of the cultural component in language teaching, methodological strategies for overcoming stereotypes, and the effectiveness of interactive and psychodidactic approaches. It emphasizes the necessity of a comprehensive approach to successful and sustainable Korean language education through modern technologies and virtual cultural environments.

Key words: korean language, learner motivation, socio-psychological factors, cultural context, interactive methods, psychodidactics, integrative motivation, intercultural competence, stereotypes, technological tools.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-14>

Zamonaviy globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj keskin oshib borayotgan bir paytda, koreys tiliga bo'lgan qiziqish alohida e'tiborni tortmoqda. Bu holatni Janubiy Koreya Respublikasining iqtisodiy, texnologik va madaniy jihatdan jahon maydonida kuchli mavqega ega bo'lishi bilan bog'lash mumkin. Ayni paytda Koreyaning yumshoq kuch (soft power) siyosati – xususan, K-pop, K-dramalar, koreys oshxonasi va zamonaviy dizayn orqali olib borilayotgan madaniy diplomatiya natijasida xorijlik o'quvchilarda bu tilni o'rganishga bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy motivatsiyalar ortmoqda [1]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy til sifatida koreys tilini o'rganayotgan talabalar orasida motivatsiyaning shakllanishida madaniy ta'sir va kommunikativ ehtiyojlar asosiy rol o'ynaydi.

Shunga qaramay, bu motivatsiya vaqt o'tishi bilan barqaror saqlanib qolmasligi, balki ijtimoiy-psixologik, ta'limiy va madaniy omillarga qarab o'zgaruvchan bo'lishi kuzatilmoqda [2]. Til o'rganishdagi motivatsiya tushunchasi ko'plab pedagogik va psixologik nazariyalarda chuqur o'rganilgan bo'lib, masalan, Gardnerning (1985) integrativ va instrumental motivatsiya modeli xorijiy til o'rganishdagi ichki va tashqi rag'batlantiruvchi omillarni ajratib ko'rsatadi. Bu modelga ko'ra, o'quvchining til o'rganishga bo'lgan qiziqishi nafaqat amaliy foyda (ish topish, ta'lim olish), balki o'sha tilda so'zlashuvchi jamiyatga madaniy jihatdan integratsiyalashishga bo'lgan istak bilan ham bog'liqdir. Koreys tilini o'rganishda ushbu ikki yo'nalish – ya'ni instrumental va integrativ motivatsiya bir-birini to'ldirib boradi. Har bir o'quvchining motivatsiyasi individual tarzda shakllanadi va bu holatga uning shaxsiy ehtiyojlari, ijtimoiy muhiti, psixologik holati, hamda madaniy tajribalari bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham koreys tilini o'rgatishda motivatsiyani tizimli tahlil qilish, uni qo'llab-quvvatlovchi metodik strategiyalarni ishlab chiqish o'qituvchilarning zamonaviy yondashuvlar asosida ishlashini talab etadi (Ushioda, 2011). Demak, til o'rganish jarayoni oddiy bilim olish emas, balki murakkab ijtimoiy-madaniy va psixologik omillarni o'z ichiga olgan integrativ jarayondir.

Til o'rganish motivatsiyasini shakllantirishda ijtimoiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-onalarning ijobiy munosabati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, tengdoshlar orasida tilni bilishning ijtimoiy prestiji, shuningdek, global mehnat bozorida koreys tilining ahamiyati o'quvchining tashqi motivatsiyasini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko'ra, o'rganish doimo ijtimoiy kontekstda yuz beradi, shuning uchun ijtimoiy aloqalar o'quvchilarning bilimga bo'lgan yondashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi Gardner [3] ham xorijiy til o'rganishda ijtimoiy muhitning, ayniqsa, oila va tengdoshlar ta'sirining motivatsiyadagi rolini alohida ta'kidlagan. Janubiy Koreyaning yuqori texnologik taraqqiyoti, ta'lim sifati, xalqaro grantlar va almashinuv dasturlarining mavjudligi yosh avlod orasida bu tilni o'rganishni "ijtimoiy lift" sifatida qabul qilishiga olib kelmoqda. Shuningdek, media orqali koreys madaniyatining (K-pop, K-drama, YouTube kanallari va boshqalar) ommalashuvi ijtimoiy identifikatsiya jarayonida koreys tilini zamonaviylik, muvaffaqiyat va kreativlik timsoliga aylantirmoqda [4]. Natijada, o'quvchining koreys tiliga bo'lgan qiziqishi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy maqom va madaniy yaqinlik asosida shakllanmoqda.

Bundan tashqari, psixologik omillar – o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, ichki motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va o'z-o'zini anglash darajasi – til o'rganish samaradorligining ichki asosini tashkil etadi. Dörnyei (2005) o'zining "L2 Motivational Self System" modelida o'quvchining til o'rganishdagi motivatsiyasini "ideal o'zlik", "kerakli o'zlik" va "o'rganishga bo'lgan tajribalar" orqali tahlil qilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchining o'zini kelajakda koreys tilida erkin so'zlashuvchi shaxs sifatida tasavvur qilishi uning o'quv faoliyatiga faol kirishishiga turtki bo'ladi. Shuningdek, Bandura (1997) ta'kidlaganidek, o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) yuqori bo'lgan o'quvchilar til o'rganishda qiyinchiliklarga nisbatan bardoshliroq va faolroq bo'ladilar. Psixologik to'siqlar – noto'g'ri urinishlar, qo'rquv, qoniqarsiz natijalar – motivatsiyani pasaytiruvchi omillar bo'lishi mumkin, ammo pedagogning hissiy-psixologik qo'llab-quvvatlovi bu to'siqlarni yengishda muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, koreys tilini o'rgatishda har bir o'quvchining shaxsiy psixologik xususiyatlariga mos yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim, chunki samarali ta'lim – bu shaxsiy ehtiyojlar va o'rganish maqsadlari uyg'unlashgan jarayondir.

Koreys tilini o'rganish jarayonida madaniy kontekstni chuqur integratsiyalash til motivatsiyasini barqaror va samarali tarzda shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Kramersch (1993) ta'kidlaganidek, til va madaniyat o'zaro ajralmas birlik bo'lib, tilni o'rganish jarayonida

madaniyatni anglash – bu nafaqat kommunikativ kompetensiyani, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi. Xorijiy til sifatida koreys tilini o'rganayotgan o'quvchilar koreys milliy qadriyatlari, oshxonasi, urf-odatlar, san'at, kino, adabiyot va kundalik turmush madaniyati bilan tanishgani sayin, ularning tilga bo'lgan qiziqishi hamda identifikatsiya darajasi ortadi.

Bu jarayon tilni faqat grammatik strukturalar orqali emas, balki kontekstual va estetik jihatdan qabul qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, Hofstede [5] tomonidan ilgari surilgan madaniy o'lchovlar nazariyasiga tayangan holda aytish mumkinki, koreys tilidagi ierarxiya, kollektivlik va ehtiyotkorlik kabi madaniy belgilarni o'rganish o'quvchiga kommunikativ holatlarda yanada samarali harakat qilish imkonini beradi. Bu kabi madaniy integratsiya o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, darsdan tashqari faoliyati va mustaqil o'rganish motivatsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, koreys tilini o'qitishda madaniy komponent – bu yordamchi emas, balki asosiy tarkibiy qism sifatida qaralishi lozim.

Shu jihatdan ham, til o'rgatishda interaktiv va psixodidaktik yondashuvlar motivatsiyani saqlab qolish va mustahkamlashda ayniqsa samaralidir. Interaktiv metodlar, xususan, rol o'yinlari, guruhli muhokamalar, vizual vositalar, o'yinli yondashuvlar o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirib, darsni jonli va samarali o'tkazishga zamin yaratadi. Ushioda fikricha, o'quvchi motivatsiyasi faqatgina maqsadlar bilan emas, balki o'qituvchining individual yondashuvi va o'quvchi hissiyotlarini tushunishga bo'lgan qobiliyati bilan ham chambarchas bog'liq.

Psixodidaktika esa aynan shu yondashuvni asoslaydi: u o'quvchining emotsional-intellektual ehtiyojlari, o'zini anglash jarayoni va o'zaro kommunikatsiyani ta'lim markaziga qo'yadi. Bu uslub, ayniqsa, chet tili sifatida koreys tilini o'rganayotganlar uchun qulay, chunki u motivatsiyani shaxsiylashtirish imkonini beradi. O'quvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etishi, madaniy holatlarga o'z munosabatini bildirishga rag'batlantirilishi ularning til o'rganish jarayonini faollashtiradi. Shu sababli koreys tili ta'limida interaktiv va psixologik jihatdan sezgir yondashuvlar nafaqat til kompetensiyasini, balki o'quvchi shaxsini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Til o'rganish jarayonida stereotiplar va madaniyatlararo farqlar o'quvchining motivatsiyasi va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy til, xususan koreys tili haqida mavjud stereotiplar – masalan, "koreys tili juda murakkab", "madaniyati bizdan butunlay farqli", "fonetikasi o'zlashtirib bo'lmaydi" kabi qarashlar – ko'pincha o'quvchilarda til o'rganishdan voz kechish, o'zini past baholash, yoki yuzaki yondashuvni keltirib chiqaradi. Bunday psixologik to'siqlarni yengish uchun o'qituvchi o'z darslarida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Byram (1997) ta'kidlaganidek, madaniyatlararo kompetensiya – bu nafaqat boshqa madaniyatni tushunish, balki o'z madaniyatini ham tan olish va ularning o'zaro o'xshash hamda farqli jihatlarini anglash qobiliyatidir.

Shu jihatdan olib qaraganda, koreys va o'zbek madaniyatlari orasida mavjud bo'lgan ijtimoiy qadriyatlar (masalan, oila institutining muqaddasligi, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik va jamiyatga sadoqat) kabi umumiyliklarni ta'kidlash orqali til o'rganuvchida begonalik hissini kamaytirish va til o'rganishga nisbatan ijobiy ichki qiziqishni uyg'otish mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, til o'rganishdagi psixologik to'siqlarni yengishga va motivatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar va virtual madaniy muhitlar xorijiy til o'rgatishda innovatsion vosita sifatida keng qo'llanilmoqda va koreys tilini o'rganishda bu resurslarning o'rni beqiyosdir. Digital texnologiyalar yordamida taqdim etiladigan mobil ilovalar (Duolingo, Memrise, TOPIK testlari), onlayn lug'atlar (Naver Dictionary), video platformalar (YouTube, V-Live) hamda ijtimoiy tarmoqlardagi interaktiv kontentlar o'quvchining mustaqil o'rganish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Warschauer & Kern (2000) qayd etganidek, texnologik vositalar yordamida tashkil etilgan ta'lim muhiti o'quvchilarni ko'proq muloqotga jalb qiladi, ularning nutqiy ko'nikmalarini amaliyot orqali mustahkamlaydi va o'rganilayotgan tilni real kommunikatsion vosita sifatida qabul qilish imkonini beradi.

Ayniqsa, koreys tilidagi filmlar, seriallar, musiqalar, podkastlar va "K-wave" fenomeniga oid kontentlar orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadilar, balki til ortidagi madaniyatni ham chuqurroq anglay boshlaydilar [5,6]. Bu esa ularning motivatsiyasini kuchaytiribgina qolmay, balki til o'rganishni shaxsiy hayotining ajralmas qismiga aylantirishga yordam beradi. Demak, texnologik vositalar orqali yaratilgan virtual madaniy muhit – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali, doimiy va madaniy jihatdan boy o'zaro muloqotni ta'minlaydigan zamonaviy platformadir.

Til o'rganishda o'qituvchining roli, ayniqsa, motivatsiyani shakllantirish va saqlab qolishda, markaziy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi nafaqat bilim uzatuvchi, balki o'quvchini ilhomlantiruvchi, emotsional va madaniy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Dörnyei [7,8] o'z tadqiqotlarida o'qituvchining shaxsiyati, emotsional barqarorligi va o'zaro muloqotga tayyorligi o'quvchining motivatsion darajasiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Brophy (2010) ijobiy psixologik muhit yaratish, o'quvchining yutuqlarini e'tirof etish, tanqid va bahoni konstruktiv shaklda berish orqali motivatsiyani saqlab qolish mumkinligini ko'rsatadi. O'qituvchining kommunikativ strategiyalari – ya'ni o'quvchini faol tinglash, fikriga hurmat bilan yondashish, o'quv ehtiyojlariga individual javob berish – o'quvchida "men qadrlanaman" degan hissiy taassurot uyg'otadi. Bunday muhitda o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etishga, xatolardan qo'rqmasdan o'rganishga va tilni faol amaliyotda qo'llashga tayyor bo'ladi. Ayniqsa, chet tili, xususan koreys tili ta'limida madaniyatlararo murakkabliklar mavjud bo'lganligi sababli, o'qituvchining madaniy vositachi sifatidagi roli ham alohida ahamiyat kasb etadi (Byram, 1997). Demak, o'qituvchining yondashuvi o'quvchining nafaqat bilimini, balki o'ziga bo'lgan ishonchini, tilga bo'lgan mehrini va ijtimoiy faolligini shakllantiradi.

Shu boisdan, koreys tilini samarali va barqaror o'rganish uchun faqat grammatik bilimlar va darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchining shaxsiy, psixologik, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda kompleks yondashuv qo'llanilishi lozim. Ushioda (2011) va Littlewood (2004) kabi tadqiqotchilar ta'limda motivatsiyaning uzluksizligi faqatgina dastlabki bosqichda emas, balki butun ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot, shaxsiylashtirilgan metodika va ijtimoiy-madaniy integratsiya orqali qo'llab-quvvatlanishi kerakligini urg'ulaydilar. Bunday yondashuvda o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishi o'quv jarayonining markazida bo'lib, til o'rganish faoliyati uning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Demak, motivatsiyani kuchaytirish va uni barqaror holatda saqlab qolish – bu yagona metod emas, balki o'qituvchi, o'quvchi va ta'lim muhitining uzviy, faol hamkorligiga asoslangan ko'p komponentli tizimdir. Bunday sharoitda koreys tilini o'rganish jarayoni nafaqat samarali natijalarga olib keladi, balki o'quvchilar uchun emotsional va intellektual jihatdan boy, ilhomlantiruvchi tajribaga aylanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Gardner R.C. Social psychology and second language learning: The role of attitudes and motivation. – London: Edward Arnold, 1985. – 216 p.
2. Dörnyei Z. The Psychology of the Language Learner: Individual Differences in Second Language Acquisition. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2005. – 270 p.
3. Ushioda E. Language learning motivation, self and identity: Current theoretical perspectives // Computer Assisted Language Learning. – 2011. – Vol. 24, No. 3. – P. 199–210.
4. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 303 p.
5. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

6. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.
7. Hofstede G. Dimensionalizing Cultures: The Hofstede Model in Context // Online Readings in Psychology and Culture. – 2011. – Vol. 2, No. 1. – P. 1–26.
8. Chun E., Choi H. Cultural representation and language learning: Effects of K-pop and K-drama exposure on Korean L2 learners' motivation // Journal of Language and Cultural Education. – 2020. – Vol. 8, No. 2. – P. 18–32.
9. Jin D.Y., Ryoo W. Critical interpretation of K-pop: Globalization, identity, and culture // Media, Culture & Society. – 2014. – Vol. 36, No. 5. – P. 629–644.
10. Warschauer M., Kern R. Network-based Language Teaching: Concepts and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 256 p.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.